QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 7-son)
IJTIMOIY FANLAR
SOCIAL STUDIES
https://doi.org/10.70728/a.series.ijt.v08.i07.021

JADID MARIFATPARVARLARI ILGARI SURGAN ASOSIY G‘OYALARINING IJTIMOIY MOHIYATI

Sattorov Musurmonqul Dostonovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
falsafa va milliy g‘oya kafedrasi dotsenti falsafa fanlari bo’icha falsafa doktori (PhD)
ORCID.ID.0009-0009-0247-8095

Annotatsiya. Mazkur mavzu jadid ma'rifatparvarlari ilgari surgan asosiy g‘oyalarning ijtimoiy mohiyatini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qiliShga bag‘iShlangan. Unda jadidchilik harakatining ma'rifat, zamonaviy ta'lim, milliy uyg‘oniSh, ijtimoiy taraqqiyot, inson huquqlari va jamiyatni isloh qiliShga oid qaraShlari yoritiladi. Shuningdek, jadidlarning ilm-fan va madaniyatni rivojlantiriSh, milliy o‘zlikni anglaSh hamda fuqarolik jamiyatini ShakllantiriShdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Mavzu jadid g‘oyalarining tarixiy hamda zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotdagi ahamiyatini ochib beriShga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, ma'rifatparvarlik, ijtimoiy taraqqiyot, milliy uyg‘oniSh, ta'lim islohoti, zamonaviy ta'lim, milliy o‘zlik, ijtimoiy islohot, ilm-fan, madaniyat, fuqarolik jamiyati, taraqqiyot.

Аннотация. Данная тема посвящена научному анализу социальной сущности основных идей, выдвинутых движением Джадидов в эпоху Просвещения. Она охватывает взгляды движения Джадидов на Просвещение, современное образование, национальное возрождение, социальное развитие, права человека и социальные реформы. Также анализируется роль и значение Джадидов в развитии науки и культуры, понимании национальной идентичности и формировании гражданского общества. Тема призвана раскрыть значение идей Джадидов в историческом и современном социальном развитии. **Ключевые слова:** Джадидизм, Просвещение, Социальное развитие, Национальное пробуждение, Образовательная реформа, Современное образование, Национальная идентичность, Социальные реформы, Наука, Культура, Гражданское общество, Развитие.

Abstract. This topic is devoted to the scientific analysis of the social essence of the main ideas put forward by the Jadid Enlightenment. It covers the views of the Jadid movement on enlightenment, modern education, national revival, social development, human rights, and social reform. It also analyzes the role and significance of the Jadids in the development of science and culture, the understanding of national identity, and the formation of civil society.

The topic serves to reveal the significance of Jadid ideas in historical and modern social development.

Keywords: Jadidism, Enlightenment, Social Development, National Awakening, Educational Reform, Modern Education, National Identity, Social Reform, Science, Culture, Civil Society, Development.

Kirish (Introduction). Turkiston o‘lkasida vujudga kelgan jadidchilik milliy uyg‘oniSh, ma’rifat va taraqqiyot g‘oyalarini ilgari surgan muhim ijtimoiy-siyosiy va madaniy harakat sifatida tarixning oltin sahifalarida muhrlandi. Jadid mutafakkirlari jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ilm-fan, zamonaviy ta’limni rivojlantiriSh, milliy ongni yuksaltiriShda va bu borada ijtimoiy islohotlarni amalga oShiriShni dolzarb vazifa sifatida e’tibor qaratiShdi. Jadidlarning g‘oyalari nafaqat ma’rifiy, balki chuqur ijtimoiy mohiyatga ham ega bo‘lib, xalqni qoloqlik, jaholat va mustamlakachilik asoratidan xalos etiShga qaratilgan harakat edi.Turkiston xalqlarining siyosiy madaniyatining o‘siShi bilan o‘lkada muxtoriyatchilik, hurriyat, ozodlik, jadidchilik va istiqlolchilik harakatlarining vujudga keliShi va yagona g‘oyaviy maqsadlar atrofida birlaShiShga zamin yaratdi. Bu davrda Turkistonda siyosiy harakatlarning ko‘tariliShiga turtki bo‘lgan asosiy sabablaridan biri 1917 yili Rossiyada yuz bergan Fevral burjua inqilobi bo‘lib, u Turkistonda muhim siyosiy o‘zgariShlarni, xalqlarning muxtoriyat uchun kuraShini, Turkistonda avvaldan mustahkam ma’naviy-mafkuraviy asoslarga ega bo‘lgan jadidchilik harakatini boShlab berdi. Jadidchilik faoliyat yuritgan davrda Turkiston ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha holati og‘ir edi. Mustabid tuzum siyosati tufayli eski ta’lim tizimining zamon talablariga javob bermasligi, o‘lkada aholi savodxonligining pastligi va ijtimoiy fikrning cheklanganligi jamiyat taraqqiyotini tanazulga griftor etgan edi. SHu sababli jadidlar ma’rifatparvarlari jamiyatni yangilaShning asosiy yo‘li sifatida ma’rifat va ta’limni yuksaltiriShni asosiy maqsadi sifatida e’tibor qaratdi. Jadidchilik harakati namoyondalarini fikriga ko‘ra, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarning asosiy sababi ilmsizlik va ma’naviy qaShShoqlik va qaloqlik hisoblanadi. SHu bois ular xalq qalbi va dunyoqaraShi hamda ongini o‘zgartiriSh orqali jamiyat taraqqiyotga etiShi mumkinligini anglab uni ilmiy asoslab berdilar. XIX asrning so‘nggi choragida Turkistonda jadidchilik harakatining xayriya iShlari mahalliy aholining boy va kambag‘al qatlami orasida yoyilib, ilk niShona bera boShlagan bo‘lsa, XX asr birinchi choragida Turkistonda jadid, ma’rifatparvarlar tomonidan xayriya jamiyatlari taShkil etila boShlandi. Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari Turkistonni o‘rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qiliSh, «Usuli qadim»ni inkor etgan holda o‘lkani, xalqni, millatni zamonaviy yo‘lga olib chiqiSh, milliy davlat bunyod etiSh, konstitutsion, parlament va idora usulidagi ozod va farovon jamiyat quriSh, turkiy tillarga davlat tili maqomini beriSh, milliy pul birligi, milliy qo‘Shin tuziSh rus taraqqiyparvarlari, ma’rifatchilarining Turkiston o‘lkasida ma’rifatparvarlik g‘oyalarini tarqatiSh uchun imkoniyatlar yaratiSh edi.

Jadidchilik harakati namoyondalari o‘zlarining ilg‘or g‘oyalarini xalq o‘rtasida tarqatiSh uchun milliy matbaachilikni rivojlantiriSh orqali, zamonaviy ta’lim sistemasini joriy qiliSh, ilg‘or g‘arb mamlakatlariga mahalliy yoShlarni o‘qishga jo‘natish yo‘li bilan amalga

oShiriShga harakat qildilar. Umuman olganda, XIX asr oxiriga kelib mahalliy ziyolilar **birinchidan**, Xalqni ilmli-ma’rifatli qilish orqali milliy ong va tafakkurni uyg‘otiShga, **ikkinchidan**, milliy davlatchilikni tiklash, turkiy til birligiga erishish, diniy va ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlaSh, **uchinchidan**, Markaziy Osiyo xalqlarini zamonaviy va demokratik taraqqiyot yo‘liga olib kirishga harakat qiladilar. Ma’rifatli kishilar millat va vatan ozodligi, xalqning ma’rifiy uyg‘oqligi va ma’rifati uchun kurashadilar. Aynan shu nuqtai-nazardan bizning xalqimiz hamisha ma’rifatga intilib kelgan. Jadidchilik harakatining Turkistonda mustaqillik uchun kuraShlarida musulmon xayriya jamiyatlarining tuziliShi siyosiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyat kasb etdi, ta’lim va madaniyat sohalarini inobatga olgan holda rivojlantiriShni ta’minladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar (Literature review)

Turkistonning turli hududlarida jadidlar tomonidan asos solingan xayriya jamiyatlari orasida “Tarbiyai atfol”, “Jamiyat taraqqiyoti maorifi Buxoro”, “Jamiyati xayriya”, “Ko‘mak”, “Imdodiya” eng maShhur jamiyatlar sifatida nom qozondi. Mazkur jamiyatlar faoliyati davomida insonparvarlik tamoyillariga asoslangan beg‘araz yordam va xayriya yo‘naliShlarida iShlarni taShkil qilindi. Jumladan, Ismoil Gaspirinskiy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori AbduraShidxonov, Abdulla Avloniy, Shukuriy, Fitrat kabi jadidlar o‘z faoliyatlarida ezgulik, muruvvat va saxovatpeShalik an’analarini davom ettirgan holda turli xil ilmiy va xayriya jamiyatlari tuziShga muvaffaq bo‘lganlar.

Dastlab, jadidchilik harakatining asoschisi Ismoil Gasprinskiy yuzaga kelgan vaziyatni yaxShi anglagan holda “Tarjimon” gazetasi orqali taShviqot kompaniyasini boShlagan. U barcha erlarda xayriya muassasalarini ochiSh, xayriya mablag‘ va manbalarini boShqariSh tizimini yaratiShga taShviqot qilgan. Birinchi bo‘lib u musulmonlar orasida eng keng tarqalgan xayriyani, sadaqani tizimlaShtiriShni taklif qilgan. Gasprinskiyning ta’kidlaShicha, buning uchun “Muruvvat uylari”, ko‘cha va bozorlarda daydib yurgan etim, nogiron va muhtojlar uchun “Etimxonalar” yaratiSh zarur, Shuningdek har bir Shahar yoki uezda mablag‘larni yig‘iSh va ularni muhtojlarga sarflaSh uchun “Xayriya jamiyati” ochiSh kerakligi qayd etilgan.

Jadidlar Turkiston kelajagi bilan bog‘liq g‘oyalarni xalqqa etkazish, ularning madaniy-ma’rifiy saviyasini yuksaltiriSh maqsadida o‘z gazeta va jurnallarini nashr qiliShga harakat qildilar. 1913-yildan Maxmudxo‘ja Behbudiy matbuot iShlari bilan Sho‘g‘ullana boShladi. Apreldan “Samarqand” gazetasini chiqara boShladi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, so‘ng to‘rt sahifada chop etilgan. “Samarqand” gazetasini 45-soni naShrdan chiqqach, moddiy tanqislik tufayli to‘xtagan. So‘ng Maxmudxo‘ja Behbudiy Shu yilning 30-avgustidan “Oyna” jurnalini chiqara boShlaydi. “Haftalik, suratlik bu majalla, asosan, o‘zbek tilida bo‘lib, unda ixcham forsiy She’r, maqolalar, ruscha e’lonlar ham berib boriladi… Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalar edi. Jadidlarning sevikli jurnallari edi…” deb yozgan edi Ziyo Said. Behbudiy Shu yillari nashr ishlari bilan qizg‘in Shug‘ullandi. A.V.Pyaskovskiy uning o‘z bosmaxonasida Fitratning “Bayonoti sayyohi hindi” asarini 1913-yilda ruschaga tarjima qildirib, naShr etganini xabar beradi. [1] Jumladan, Maxmudxo‘ja Behbudiy 1913-yildan boShlab

“Samarqand” gazetasini chop qila boShladi. Keyinchalik bu gazeta “Oyna” jurnaliga aylantirildi.Jadidlarning bevosita rahbarligida ToShkentda “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Sadoi Turkiston”, Qo‘qonda “Sadoi-Farg‘ona”, Buxoroda “Buxoroi Sharif”, “Turon” kabi o‘nlab gazeta va jurnallar naShr etila boShladi. Jadidlar Turkiston kelajagi bilan bog‘liq g‘oyalarni xalqqa etkaziSh, ularning madaniy-ma’rifiy saviyasini yuksaltiriSh maqsadida o‘z gazeta va jurnallarini naShr qiliShga harakat qildilar. Har bir davrda millatning har bir farzandi ruhida boqiy yashab kelayotgan, Vatanning mustabidlar zulmidan ozod bo‘liShini, elga erk, hurriyat istagan xalqimizning qalbi uyg‘oq farzandlari bo‘lmiSh jadidlar hamisha fikru yodimizni egallaydi. Bu millat oydinlari tarixini, hayoti va faoliyatini o‘rganganimiz sari ular barhayot bo‘laveradi, yuraklarimizni bir chetini tirnayotgan armonlar qayta gavdalanadi.

Jadidchilik aslida ma’rifatparvarlik harakatining ko‘rinishidir. Shuning uchun biz bu o‘rinda masala bayonini ma’rifat va ma’rifatparvarlik tushunchalari va uning ahamiyatini izohlaShdan boshlashni lozim topdik. Maifatning lug‘aviy ma’nosi bilish, tanish, bilim demakdir. Boshqacha aytganda ma’rifat bilmoq, kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oShiriShga qaratilgan ta’lim-tarbiya jarayonidir. Ma’rifat so‘zining ko‘pchilikdagi ma’nosi maorifdir. Ma’rifat atama sifatida-tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma’lumotlar majmuasini bildiradi.

Ma’rifatli degani-bilimli, muayyan sohada ma’lumoti bor, demakdir. Fanlar chuqur va keng rivojlanib borayotgan hozirgi davrda bilim va ilmga intilgan har bir kiShi, talaba, fan namoyondasi ilmning, ya’ni ma’rifatning maum sohasinigina egallashga erisha oladi. Ma’rifatni ongga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Demak ma’rifat bilim va madaniyatning qo‘Shma mazmuni bo‘lib, maorif esa ana Shu mazmunni yoyish quroli, vositasidir. Ma’rifat asosan umumiy va o‘rta maxsus bilim beruvchi maktab va o‘quv yurtlarida tarqatiladi. Ma’rifat tushunchasi maorif tuShunchasidan keng bo‘lib, bilim va madaniyatni yoyish va yuksaltirishning hamma turlari, Shakllari va sohalarini o‘z ichiga oladi. Jamiyatda ma’rifat, ya’ni bilim ma’rifatparvarlar orqali yoyiladi. Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga, bir tarixiy davrdan ikkinchi bir tarixiy davrga o‘tishi ma’rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonaning eng etuk, ongli, oq-qorani tanigan, fidoyi, elim, yurtim deb yaShovchi, uzoqni ko‘zlovchi ma’naviyatli kiShilari ma’rifatparvarlik bilan Shug‘ullanadilar. Ma’rifatparvarlar odatda davr uchun, jamiyatninng, mamlakatning, xalqning buguni va kelajagi uchun muhim g‘oyalarni ilgari suradilar, Shu g‘oyalarni amalga oShiriSh uchun kurash olib boradilar. Ma’rifat ma’naviy qaramlik, qo‘rquv va hadikni bartaraf etadi, insonga beqiyos ilohiy qudrat, mislsiz salohiyat baxSh etadi. SHuning uchun ozodlik uchun kuraShuvchilar mamlakat, millat ozodligini xalqning ma’rifiy uyg‘oqligida deb biladilar va ma’rifat uchun kurashadilar.

Jadidchilik bir asr davomida avval kommunistik g‘oyaning tazyiqida, keyinchalik esa iskanjasida bo‘lib, to‘la raviShda namoyon bo‘la olmadi. Uning zaminlari ShakllaniShi tarzini o‘rganiShga intilganlar ham tazyiq ostiga olindi. Uni o‘rganiShga intilganlar ham ta’qib qilindi. Mustaqillik Sharofati bilan Turkiston xalqlarining erki, mustaqilligi, milliy davlatchilik g‘oyalari, ma’rifati uchun kuraShgan vatanparvarlarning muborak nomlari tiklandi, asarlari chop etildi. Jadidlarning g‘oyalari o‘lmas g‘oyalar bo‘lgani

uchun ham mustaqillik bilan birga hayotimizga qayta kirib keldi.

Turkiston ma’rifatchilik maktabi boy o‘tmiSh va ulkan merosga ega. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori, Abdulqodir Shukuriy, AShurali Zohiriy, Saidrasul Saidaziziy, IShoqxon Ibrat va Ahmad DoniShlar XIX asr oxirlarida faoliyat boShlab, mamlakatni, xalqni milliy zulm va qoloqlikdan xalos etiShning yagona yo‘li ma’rifatda deb bildilar. Bu fidoyi zotlar mustabid tizim va jaholatga, ma’naviy qullik va zulm-zo‘ravonlikka qarShi bor kuchlari bilan kuraSh olib bordilar. Bu ma’rifatparvar bobolarimiz dunyo kezib, dunyo xalqlarining ilm fan madaniyati bilan taniShib, mustamlaka o‘lkani, uning kiShanlarini ilm chirog‘i bilangina ozodlik sari boShlamoq, parchalamoq mumkin ekanini chuqur his etdilar. SHu sababli ham eng avvalo yurtimizda maktab-maorif iShlarini rivojlantiriShda ham amaliy, ham nazariy jihatdan azmu Shijoat namunasini ko‘rsatdilar. Ko‘rinadiki, jadidchilik, ma’rifatchilik ham millatni ma’rifatli qiliSh, ma’naviyatini yuksaltiriSh maqsadlarida yo‘zaga kelgan buyuk tarixiy harakatdir.

Turkistonda jadidchilik milliy-ozodlik kuraShi jarayonida yuzaga kelgan, o‘zbek xalqi tarixida yangi sahifani ocha boShlagan ijtimoiy harakat bo‘lganligi bilan ajralib turadi. Ularning dunyoqaraShida vatanparvarlik, millatparvarlik, ma’rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik kabi g‘oyalar etakchilik qilgan. O‘lkani mustamlaka zulmidan ozod qiliShni jadidlar hamma narsadan ustun qo‘ydilar. Jadid ziyolilari erk, istiqlolga eriShiSh uchun milliy ongni o‘stiriSh zarurligini payqadilar. SHu orqali milliy uyg‘oniShga da’vat etdilar. Bularni amalga oShiriSh vositasini ta’lim va tarbiyada - ma’rifatda deb bildilar. Mana Shuning uchun ham jadidlar yangicha ta’lim va tarbiya tizimini qaror toptiriSh yo‘lida hormay-tolmay iShladilar.

Jadidchilik harakati hanuzgacha ma’rifatparvarlik harakati sifatida talqin etib kelinmoqda. Rostdan ham jadidlar maktab ochiShgan, darsliklar yaratib, bolalarni yangicha usulda o‘qitiShgan. Ularning jurnalistlik faoliyati tadqiqotlarida ham asosiy urg‘u ma’rifiy mavzudagi maqolalariga berildi. To‘g‘rirog‘i, jadidlarni Shaxs sifatida o‘rganmaslik, faktlarni chuqur tahlil qilmaslik ularning siyosiy arbob sifatidagi siymolarini pardaladi. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori AbduraShidxonov, Abdurauf Fitrat, AShurali Zohiriy kabi jadid karvonboShilari, avvalo, mustamlakachilikga qarShi kuraSh dasturini iShlab chiqqan siyosiy arbob edilar.[2]

O‘sha davrlarda jamiyatning ma’naviy inqirozi chuqurlaShgan bo‘lib, milliy madaniyatni ko‘tarmay, umumsoniy qadriyatlardan bahramand bo‘lmay ma’rifat, tarbiyaviy iShlarni keng yo‘lga qo‘ymay, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotga imkoniyat yaratib bo‘lmas edi. Jadidlar, ya’ni ma’rifatchilar millatning ma’naviy kamoloti yo‘lida o‘zining butun kuchi va iste’dodini safarbar etiShga tayyor bo‘lgan fidoyilar edi.

Jadidlar millatni qoloqlik, xurofot botqog‘idan olib chiqiSh uchun harakat qilar ekanlar, bunda Shariatga qat’iy rioya qiliSh orqali maktab va madrasalarda ta’lim beriSh tizimini dunyoviy ilmlarni beriSh asosida isloh qiliSh g‘oyasini ilgari surganlar va bu borada o‘zlari amaliy harakat namunasini ko‘rsatganlar. Xullas, jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr boShlarida milliy uyg‘oniSh va milliy ong yuksaliShida katta rol o‘ynaganlar.

Jadidchilik g‘oyalarini uning yorqin vakillaridan Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Fayzullo Xo‘jaev, So‘fizoda, Tavallo, IShoqjon Ibrat kabilar g‘oyat og‘ir Sharoitlarda targ‘ib etiShga harakat qilishgan. Ular millatning kamolotini yuksaltiriSh, uning qadr-qimmatini erga uriShga yo‘l qo‘ymaslik borasida katta iShlar qilganlar. Ma’rifatchi jadidchilar og‘ir moddiy qiyinchiliklar, g‘oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay, millatning ma’naviy yuksaliShi uchun imkoniyatlar yaratiShga harakat qildilar. Tarixning murakkab, mas’uliyatli buriliSh davrlarida millatning milliy ongini yuksaltiriSh, milliy iftixor tuyg‘usini kuchaytiriSh birinchi darajali vazifa ekanligini anglab etganliklari uchun ham bu boradagi barcha iShlarni o‘z zimmalariga oldilar. Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori va boShqa millat uchun jonkuyar jadidlar maktablar ochar, ularda o‘zlari dars berar, o‘quv qo‘llanmalari yozar, naShr etar va bu yo‘lda jonbozlik ko‘rsatar edilar. Bu yo‘lda hatto o‘z mablag‘larini ayamaganlar. Bunday saxovatpeShalik, savobtalablik kabi ezgu iShlar bizning hozirgi mustaqil rivojlaniShimiz uchun ham nihoyatda zarur. Biz erkin fuqarolik jamiyatini quriShni, barpo etiShni orzu qilmoqdamiz va Shunga intilmoqdamiz.

Jadidchilik g‘oyalarini chuqur iShlab chiqib, uni hayotga tadbiq qilganlardan Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, A.Qodiriy, A.Avloniy, Munavva qori, F.Xo‘jaev, Sufizoda, Isokjon Ibrat va boShqalar millatimiz kamolotini yuksaltiriSh, qadr-qimmatini erga uriShga yo‘l quymaslik uchun katta iShlar qilganlar. Ma’rifatchi jadidlar juda og‘ir Sharoitlarda g‘oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay, millatimiz ma’naviy yuksaliShi uchun imkoniyatlar yaratiShga harakat qildilar. Tarixning murakkab buriliSh davrlarida millatning milliy ongini yuksaltiriSh, milliy iftixor to‘yg‘usini, kuchaytiriSh birinchi darajali vazifa, deb bildilar. Ular xalqimiz bolalari uchun maktablar ochar, o‘quv qo‘llanma, darsliklar yozar va dars berar edilar. Bu yo‘lda xatto o‘z Shaxsiy mablag‘larini ham ayamaganlar. Bunday saxovatpeShalik bizning xozirgi Sharoitimiz uchun ham hayotiy zarurdir.

Shunday qilib, jadidchilik harakatidagi ma’naviyat, birinchidan ozodlik va Mustaqillikka uruShlar bilan emas, balki aholining savodini chiqariSh, ularning ma’rifatini ko‘tariSh orqali eriShiliShini, ikkinchidan milliy ongni rivojlantiriSh, milliy birlikni vujudga keltiriSh, siyosiy taraqqiyotga olib boruvchi omilligini; uchinchidan jadidchilar ma’rifatparvarlik g‘oyalarini faqat ilgari suriSh yo‘li bilan cheklanib qolmasdan, o‘zlarining mablag‘lari hisobiga ham maktablar ochdilar, kitoblar chiqardilar. Ular og‘ir moddiy qiyinchiliklar, g‘oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay, millatning ma’naviy yuksaliShi uchun imkoniyatlar yaratiShga harakat qildilar. Mana Shu iShlari bilan jadidchilik harakati milliy ma’naviyatimiz rivojiga buyuk xissa qo‘Shdilar.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov o‘zining «Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz» asarida «Bugungi jamiyatimiz oldida turgan bu ulug‘vor va murakkab vazifalarni xal qiliSh eng avvalo ta’lim-tarbiya, ma’rifat masalasiga borib taqaladi. Bu masalaga keng jamoatchilik diqqatini jalb qilish kerak. Matbuot, televidenie orqali odamlarda ma’rifatparvarlik g‘oyalarini tarbiyalaSh, maktab-maorif tarmoqlariga homiylik, saxovotpeshalik, savobtalablik kabi ezgu xususiyatlarni kuchaytiriSh kerak»,[9] deb ta’kidlab, fidoyi, saxiy, millatparvar, insonlarni tarbiyalash vazifasini qo‘yadilar.

Milliy uyg‘oniSh g‘oyalarini ilgari surgan Abdulla Avloniy millatimiz ma’naviy inqirozini tanqid qiladi va fan yutuqlarini egallaShga chaqiradi. «Ilm insonlarning madori, hayoti, raxbari, najotidir» degan g‘oyasi bilan xalqni ilm, ma’naviyat, ma’rifatga chorlaydi. «Turkiy Guliston yoxud axloq» nomli kitobida ilm-fan, ma’rifat, ma’naviyatning inson hayotida tutgan o‘rniga katta baho beradi. Bu esa bugungi o‘zligimizni bilayotgan bir Sharoitda ham ahamiyat kasb etadi. Avloniy millatimiz bolalarini ma’rifatga chorlab quyidagilarni yozadi. «Ilm inson uchun goyat oliy va muqaddas fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatlarimizni oyna kabi ko‘rsatur. Zexnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkir qilur, savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ajratib berur. To‘g‘ri yo‘lga raxnamolik qilib, dunyo va ohiratda mas’ul bo‘liShimizga sabab bulur. Bizlarni ilm jaxolat qorong‘uligidan qutqarur. Madaniyatli, ma’rifatli dunyosiga chiqarur. Allox Taologa muxabbat va e’tiqodimizni orttirur».

Umuman, jadidlar o‘zlarining ma’rifiy-ma’naviy, millatparvarlik g‘oyalari uchun ularning hayoti CHor hukumati va Shurolar davrida nixoyatda fojeaviy bo‘ldi. «Millatchi», «Panturkist» kabi tamg‘alar bosib, qatag‘on qilindi, otib taShlandi. Jadidchilarga nisbatan bunday vaxShiyona choralar asosida ularning tor-mor qiliniShi turkiy millatlarning jahon miqyosida taniliShini yana bir asr orqaga surgan edi. Jadidizm g‘oyalarini o‘rganiSh ham ta’qib qilingan edi.

«Turkiston ma’rifatchilik maktabi boy o‘tmiSh va ulkan merosga ega. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori AbduraShidxon o‘g‘li, Abdulqodir Shakuriy, AShurali Zohiriy, Saidrasul Saidaziziy, IShoqxon Ibrat va Ahmad DoniShlar XIX asr oxirlarida faoliyat boShlab, mamlakatni, xalqni milliy zulm va qoloqlikdan xalos etiShning yagona yo‘li ma’rifatda deb bildilar. Bu fidoiy zotlar mustabid tuzum va jaholatga, ma’naviy qullik va zulm-zo‘ravonlikka qarShi bor kuchlari bilan kuraSh olib bordilar. Mustabid sovet tuzumi Sharoitida jadidchilik harakatiga to‘g‘ri baho beriSh va uni munosib taqdirlaSh imkoniyatiga ega emas edik. Aksincha jadidchilik harakatining vakillari millatchilik g‘oyasini targ‘ib qiluvchi panturkizm va panislomizm mafkurasi tarafdori deb e’lon qilindi. Ularga “millatchi” degan tamg‘a bosilib qatag‘on qilindilar».[3]

Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik, diniy xurofotdan ozod qiliSh, Shariatni isloh qiliSh, xalqqa marifat tarqatiSh Turkistonda muhtoryat hukumatini barpo etiSh uchun kuraSh, Buxoro va Xivada konstitutsion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatiSh orqali ozod va farovon jamiyat quriSh, barqaror milliy valyutani joriy qiliSh va milliy qo‘Shin tuziSh. ToShkent, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kiShilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-ma’rifiy yo‘naliShdagi jamiyat va uyuShmalardan jadidchilik harakati Shakllandi.

Turkistonda jadidchilik milliy ozodlik kuraShi jarayonida yuzaga kelgan, o‘zbek xalqi tarixida yangi sahifani ocha boShlagan ijtimoiy harakat bo‘lganligi bilan ajralib turadi. Ularning dunyoqaraShida vatanparvarlik, millatparvarlik, ma’rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik kabi g‘oyalar etakchilik qilgan. O‘lkani mustamlaka zulmidan ozod qiliShni jadidlar hamma narsadan ustun qo‘yganlar. Jadidlar erk, istiqlolga eriShiSh uchun milliy ongni o‘stiriSh zarurligini anglab etdilar. SHu orqali milliy uyg‘oniSh yasamoqchi bo‘ldilar. Buni esa ta’lim

va tarbiyada, ma’rifatda deb bildilar. Mana Shuning uchun ham jadidlar yangicha ta’lim va tarbiya tizimini qaror toptiriSh yo‘lida hormay tolmay faoliyat yuritdilar.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Tadqiqot ishimizda tarixiylik, mantiqiylik, analiz va sentiz, umumlashtirish,taqqoslash usullaridan keng foydanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

XIX asr oxiri va XX asr boShlarida bu harakatning tarixiy ahamiyati nihoyatda katta bo‘lgan. Bu davrda jamiyatning ma’naviy inqirozi chuqurlaShgan bo‘lib, milliy madaniyatni ko‘tarmay, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo‘lmay ma’rifat, tarbiyaviy iShlarni keng yo‘lga qo‘ygan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotga imkoniyat yaratib bo‘lmas edi. Jadidlar, ya’ni ma’rifatchilar millatning ma’naviy kamoloti yo‘lida o‘zining butun kuchi va iste’dodini safarbar etiShga tayyor bo‘lgan fidoiylar edi.

Jadidlar millatni qoloqlik, xurofot botqog‘idan olib chiqiSh uchun harakat qilar ekanlar, bunda Shariatga qat’iy rioya qiliSh orqali maktab va madrasalarda ta’lim berish tizimini dunyoviy ilmlarni beriSh asosida isloh qiliSh g‘oyasini ilgari surganlar va bu borada o‘zlari amaliy harakat namunasini ko‘rsatganlar. Hozirgi mustaqillik Sharoitida ham Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek: «Manaviyat, ma’rifatni targ‘ib qiliSh har bir ziyolining vijdon iShidir. Ma’rifatchi fidoyi bo‘lmog‘i, o‘zidan kechmog‘i kerak».[4]

Demak, jadidlar umum milliy, ma’rifatni ko‘tariSh, milliy ongni rivojlantiriSh, milliy birlikka eriShiSh va ularni amalga oShiriSh orqali jahon madaniyatini egallab, mustaqilikka eriShiSh kabi g‘oyalari bilan milliy ma’naviyatimiz rivojiga munosib xissalarini qo‘Shgan. Mana Shu borada, bugun hayotimizda tadbiq qilinayotgan milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning asrlar davomida Shakllangan yuksak ma’naviy, an’anaviy udumlari, ulug‘ bobokalonlarimizning o‘lmas merosidan oziqlanadi va uning uzviy qismi sifatida milliy ma’naviyatimiz rivojlaniShida muhim manbaa bo‘lib xizmat qiladi.

Faqat mustaqillikka eriShuvimiz natijasida birinchi Prezidentimiz Islom Karimov boShchiligida Turkiston xalqlarini erki, ozodligi, milliy davlatchilik g‘oyalari ma’rifat va ma’naviyat rivoji uchun kuraShgan vatanparvarlarning muborak nomlari tiklandi, asarlari chop etildi. Ularga qatag‘on qilinganlar xotirasiga atalib, ToShkentda katta yodgorlik majmui o‘rnatildi, mo‘zey taShkil etildi. Ma’naviyat rivojida ma’rifat, ilmning ahamiyati nihoyatda katta ekanligini Payg‘ambarimizning quyidagi hadislarida ham ko‘riShimiz mumkin: «BeShikdan qabrgacha ilm izla», «Ilm-fansiz buyuk davlat ko‘rib bo‘lmaydi», «Garchi Xitoyda bo‘lsa ham ilm talab qilinglar», «Ilm o‘rganiSh xar bir mo‘min uchun farzdir demak, ilm majlisidan qochiSh Allohdan yuz o‘giriSh bilan barobar hisoblanadi».[5] Bular ham jadidchilar ko‘tarib chiqqan ma’rifatparvarlik g‘oyalari islom dinimizda ham mavjudligini ko‘rsatadi.

SHunday qilib, umuman ilm egalari elda aziz bo‘lib, hurmatga sazovor bo‘ladilar. SHu to‘fayli ota-bobolarimiz doimo bilimga intilib yaShaganlar va Shu yuksak ma’rifat va madaniyati tufayli Turonzamin er yo‘zida Shuxrat qozongan. Siz talabalarning ham ilmni chuqurroq egallab, Vatan, millatimiz kelajagi uchun xizmat qiliShimiz asl burchimizdir. Ilm egalarining foydasi har doim ko‘pchilikka tegib turadi. Ular elda aziz bo‘lib, hurmatga

sazovor bo‘ladilar. SHu tufayli ota-bobolarimiz doimo bilimga intilib yaShaganlar. Ular ma’rifat chiroqlarini maSh’ala singari yoqqanlar. YUksak ma’naviyat va ilm-ma’rifat tufayli Turonzamin er yuzida Shuhrat qozongan.

Bugunda yoShlarimizning har biri bunday fidoyi, vatanparvar, zyoli siymolarni yaxShi biliShlari va unutmasliklari kerak. Zero, ular biz uchun haqiqiy axloqiy namunalardir. «Ma’rifatparvarlik, - deb ta’kidlaydi birinchi prezident Islom Karimov, -biz uchun bugun ham o‘z ahamiyat ini yo‘hotgani yo‘q, yo‘qotmaydi ham. Aql-zakovotli, yuksak ma’naviyatli kiShilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga kuygan maqsadlarga eriSha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi». [6] Bugunda ma’rifatparvar-jadidchilarning bebaho asarlari, ilmiy, nazmiy va nasriy meroslari ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g‘oyalari o‘zbek xalqining ma’naviyat va ma’rifatini, milliy qadriyatlar va ongini yuksaltiriSh yo‘lida xizmat qilib, avlodlar qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini tarbiyalab kelmoqda.

Mustaqillik tufayli mamlakatimizda ma’rifatparvar jadidlarning nomlari tiklanayapti, tavallud topgan kunlari tantanali niShonlanayapti, asarlari qayta-qayta chop etilayapti. Ularning dunyoqaraShlarida bayon etilgan falsafiy-axloqiy fikrlari xalqimizning madaniy-ma’naviy, qadriyatlar sifatida xano‘zgacha saqlanib kelinmoqda.

XIX asr oxirlari XX asr boShlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakatining asosiy g‘oyalari quyidagilardan taShkil topgan:

- umummilliy ma’rifatni mavqeyini ko‘tariSh;
- milliy ongni rivojlantiriSh;
- xalqni milliy birligini ta’minlaShga eriShiSh;
- xalqni milliy mustaqillikka eriShtiriSh;
- mamalakatda jahon eriShgan madaniyatni yoyiSh.

Jadidchilikning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

-Turkiston xalqlarini o‘rta asrlarga xos qoloqliklardan va diniy xurofotlardan ozod etiSh Shariatni bosqichma-bosqich isloh qiliSh;

-xalqqa ma’rifat ulaShiSh va tarqatiSh;

-Turkistonda mahalliy hukumatni yangi muxtoriyat hukumatiga o‘tkaziSh uchun kuraShiSh;

-O‘Sha davrning Buxoro va Xiva xonliklarida qonuni bo‘lmiSh konstitutsiyaviy monarxiya va parlament keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatiSh orqali ozod va farovon jamiyat quriSh;

-O‘Sha zamonga xos barqaror milliy valyutani joriy qiliSh va milliy qo‘Shin tuzish;

-ToShkent, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar insonlarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-marifiy yo‘naliShdagi jamiyat va uyuShmalardan jadidchilik harakatini ShakllantiriSh asosiy maqsad sifatida e’tibor qaratilgan.

Ismoilbek Gasprinskiy 1895-yilda yozgan maqolalaridan birini “g‘oya” deb atagan edi. Uningcha, “xalqlar hayotidagi barcha buyuk voqealarning tag zaminida u yoki bu g‘oya yotadi. Eng ulug‘ kaShfiyotlar, avvalo, ular haqidagi orzu-niyatlardan boShlangan.

Islom g‘oyalari yarim dunyoni bir hovuch arablar atrofiga birlaShtirdi. Moskva atrofiga birlaShuv g‘oyasi qudratli Rossiyani maydonga keltirdi. Tenglik va ozodlik g‘oyasi fransuzlar mavqeini Evropada sarbaland qildi.

G‘oyasizlikchi! Millatni zaiflaShtiruvchi, turg‘unlikka-tanazzulga olib boruvchi g‘oyasizlik, maqsadsizlikdir. Tarix necha martalab aql-u isde’dodiga guvoh bo‘lgan Sharq xalqlari nega bunday zalolatga botdi? Necha yuz million xitoylar, hindlar so‘ngi ming yil davomida o‘zlarini ko‘rsata olmay, nega boShqalar qaramiga tuShib qoldilar? Sababi-g‘oyasizlik - deb tuShuntiradi muallif.

SHundan keyin u Rossiya qo‘l ostidagi musulmonlar hayotiga o‘tadi. “Taassufki, Rossiyaning musulmon jamiyatida asl va chinakam g‘oyasi va orzusi yo‘q,- deb yozadi muallif.- Ular yolg‘iz Shu kunning, Shu daqiqaning manfaati, Shu birgina qorinni to‘qlab oliSh manfaati bilan yaShaydilar va hozirgidan bir necha marta yaxShiroq iShlamoq va yaShamoq mumkinligini bilmaydilar. Bizda tuShni ta’bir qiluvchi risolalar, gul va bulbul haqidagi qo‘Shiqlar o‘zi bir qarich, soqoli qirq qarich polvon haqidagi kitoblar ko‘p, ammo ongimizni qoplab olgan jaholatni tarqatguchi, ahvolimizni tuShuntirib berguvchi, taraqqiyot xususida, kelajak xususida o‘ylaShga, ilgariga intiliShga majbur etadigan biror g‘oya yo‘q. SHunday ekan, maorifga, taraqqiyotga intiliShni o‘z oldimizga vazifa va orzu qilib qo‘ymoq kerak emasmi?!”

SHu g‘oya bilan iSh tutilsa, millatning jonlaniShiga, ma’rifatli avlod Shakllanib hayotning go‘zallaShiShiga jadidlarimiz chin-dildan iShoniShadi. Bugina emas, uni hayot mamot masalasi deb biladi. Millatning milliy, diniy, insoniy huquqlarini muhofaza qiliShda birinchi darajali iSh deb hisoblaydi.

“Bir millatning quvvat va matonati uning saodati va farog‘ati aholining oz-ko‘pligi bilan emas, a’zolaridagi madaniyat va taraqqiyotga omil hayotiy xususiyatlarining darajasi bilan o‘lchanadi”, - deb yozadi Ismoilbek 1908 yilda “Ilm va ma’rifat davri” [7] maqolasida. Ilm-hunar g‘ayrat va mehnat bilan qo‘lga kiradi. G‘ayrat va mehnat esa ilmu hunar tufayli samara beradi. Bular o‘zaro bog‘liq tuShunchalardir. Qavmining ko‘pchiligi jisman sog‘ bo‘lib, ilmu-hunardan bebahra qoliShi va hayoli pariShon bo‘lib, o‘zini himoya qilmoqdan ojiz holga tuShiShi mumkin. Ilm-ma’rifatda quvvatli evropa millatlarining sog‘lom Afrikani asoratga oliShlari bejiz emas.

Xo‘Sh, buning oldini oliSh uchun nima qiliSh kerak? Ma’rifatga ehtiyoj, ilm-fanni o‘rganiSh g‘oyasi millatning ko‘pchiligi tomonidan anglaniShi kerak. Darhaqiqat, jadid bobolarimiz olib borgan barcha iShlar-matbuotning yo‘lga qo‘yiliShi, “usuli jadid” maktabchiligining nazariyasi va amaliyoti, teatrchilik hamma-hammasi Shunga xizmat qildirildi. SHu tariqa har bir g‘oyaning milliy g‘oyaga aylaniShi, jadidlarimiz fikricha ikki Shartni taqqozo etar edi:

-G‘oya millatning tub, asl ehtiyojlaridan, turiSh-turmuShidan, asriy an’analaridan, o‘zligidan va tabiiyki, imkoniyatidan kelib chiqmog‘i lozim.

-Mazkur g‘oya millat tomonidan anglaniShi, his qiliniShi, boShqacha aytganda, ongiga joylaShib, yuragida o‘tga aylanmog‘i, so‘ngsiz iShtiyoq hosil qilmog‘i kerak.

-Tabiiyki, har bir millat taraqqiy topiShi uchun jahon ilm-fani yangiliklaridan, umuminsoniy g‘oyalardan foydalanmog‘i zarur. Lekin muhim bir Shart bilan. Bu g‘oyalar millatning qalbi va ongidan o‘tmog‘i, “milliylaShmog‘i” kerak. Shundagina u millat yo‘lida xizmat qila oladi.

-Bunda buyuk masuliyat ziyolilar zimmasiga tushadi. Chunki millat ehtiyojini dildan anglovchi va oldinga boshlovchi ziyolilar sinfidir. Buning uchun esa, o‘Sha ziyolining o‘zi “milliy axloq va tarbiya egasi” bo‘lmog‘i kerak. Bu oson iSh emas. [8]

“Tarjimon” gazetasida chiqqan maqolalarning birida Shunday gap boradi: “Agar bizni oramizda yaxShi odamlar bo‘lsalar, boShlab maktab muallimlaridirlar. Agar bizda foydali odamlar bo‘lsalar, bular ham ulardir. Agar oramizda o‘ziga hech bir hurmat, maqtov, Shuhrat talab etmay, butun g‘ayratni o‘quv tarbiya iShiga, haqiqat yo‘liga sarf etgan kiShilar bo‘lsalar, bular ham muallimlardir.Sharaf sizga, muhtaram o‘qituvchilar!

Sizning fidoyi mehnatingiz qadriga yetmaganimiz uchun, sizni faqirlikda, muxtojlikda qoldirganimiz uchun bizlarni, o‘qitgan bolalaringizning otalarini kechiringiz” Jadidlarimiz oliy o‘quv yurtini zaruriyatini teran his qildilar va barcha imkoniyatlardan foydalaniShga urindilar. Jadidlarimiz so‘ngi uch-to‘rt asr davomida tushkun holga tushib tarixini unitayozgan millatimizga tarix Shuurini singdiriShga va u orqali yangi ruh baxsh etishga urindilar. Darhaqiqat, milliy Shuurni tarix Shuuri maydonga keltiradi. Tarix Shuuri esa tarixni tanimoqdir. “Tarjimon” gazetasining 1906-yil dekabr, 1907-yil yanvar sonlarida bosilgan “Mukolamayi salotin” bilan Fitratning “Temur sag‘anasi” asaridagi hamohanglikni payqash qayin emas.

Alibek Husayinzoda 1909-yili “Taraqqiy” (Baku) gazetasida bosilgan “Turklik-askarlik” maqolasida til materiali asosida muhim bir fikrni ilgari suradi. Bizning buyruq maylini anglatuvchi ayrim fe’llarimizda 4-5 qavatli amir ma’nolari bor ekan (masalan: ur, urdir, urdit, urdirtdir; chiq, chiqar, chiqart, chiqartdir, chiqartdirt kabi) ki, boShqa tillarda uchramaskan. Bu hol turkdagi hukm va hokimyatning g‘oyat qadimligini, buyuruqning ko‘p bosqichligi esa davlat idora tizimida esa eng ko‘hna zamonlardan buyon mansab-martabalar silsilasining qat’iy intizomi suburdinatsiyasiga amal qilinib kelinayotganligiga dalil ekan.

Masalan, qo‘Shin boShlig‘i to‘g‘ridan-to‘g‘ri askarlariga “Qal’aga hujm eting!” demaskan, sarkardalariga “Etdirtiring!” derkan va bu buyruq poyama-poya mingboShi-yuzboShi bo‘ylab tuShib kelarkan. “Xar bir millatning tili uning hayotining, fikrining, ruhining oynasidir”, - deb tugallanadi maqola.

Jadidlar millatning taraqqiyotinigina emas, yaShaSh, hatto uni saqlab qoliSh kafolatini ham milliylikda ko‘rdilar. “Milliyat fikriga, bu azim quvvatga hech bir kuch bas kela olmadi,- deb yozgan edi Yusuf Oqchura.-Yuzminglarcha haybatli qo‘Shin bu fikr qarShisida yengildi. Milliyat atalmiSh bu buyuk qudratga bugun to‘p va miltiq bas kelaolmaydi”.

Milliyat tuShunchasi birlikni talab qildi. Birlik deyilganda, asosan lisoniy, irqiy, diniy muShtaraklik ko‘zda tutiladi. SHular asosida millatning uyg‘oniShi, o‘z-o‘zini anglaShida muhim rol o‘ynagan, lekin so‘ngroq asossiz raviShda avblov vasiqasiga aylantirilgan panislomizm, panturkizm, panturonizm, mahalliy millatchilik kabi tuShuncha va atamalar paydo bo‘ldi. Ularning ayrimlari o‘z davrida milliy g‘oya darajasiga ko‘tarildi, lekin siyosiy

jihatdan amalga oshirish imkoniyati bo‘lmagani uchun zamon talablarida orqada qolib qolib ketdilar.

Dunyoda yaShab turgan har bir millatning o‘z fe’li-tabiatidan, hayot Sharoiti va turmSh tarzidan, maslak va e’tiqodidan kelib chiqqan, asosiy tarixiy tajribalari bilan mustahkamlanib, takomillaShib borgan va boradigan fikr- qaraShlari tizimi bor. Bu tizim millatning borliq va tabiatga munosabatidan tortib, jamiyat, axloq, siyosatigacha bo‘lgan qaraShlarini qamrab oladi (bu erda ilm-fanni emas, qaraSh va munosabatlarni ko‘zda tutadi). Bu qaraShlar o‘Sha millatning fe’li-saviyasini, qiyofasini, fe’l-atvorini, intiliShini o‘zida namoyon etadi. Milliy mafkura degani-Shu. Bu xalq qanday xalq? Tarixiy ona vatan qayerda? Qanday yaShab keldi? Kimlar bilan yonma-yon yaShab keldi? Do‘stlari? DuShmanlari? Do‘stga aylangan duShmanlari? DuShmanga aylangan do‘stlari? Davlatchiligi, uning kamoli va zavoli. Idora tuzumi, askar tutumi, zehniyati, zavqi-didi, iymon-e’tiqodi kabi millatning tarixi, turmuShi bilan bog‘liq o‘nlab masalalarni oydinlaShtirmasdan, u haqda aniqroq bir narsa deyish qiyin. Lekin Shunisi aniqki, milliy mafkura-jamiyat hayotining jon tomiri. U qurisa millat o‘siShdan to‘xtaydi, jamiyatda ijtimoiy muozanat buziladi. Uning asoslari tarixda, urf-odat va an’analarimizda. Uni tiklaShning zarurligini birinchi bo‘lib jadidlarimiz angladilar. “Mafkura” “fikr”dan olingan. Fikr-g‘oya, demakdir, albatta. Fikr-g‘oya ko‘proq “hikmatli so‘zlar”da, maqollarda saqlanib qolgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy millatimizning ruslar tomonidan “satir” atalishiga isyon qilib chiqqan bir maqolasida yozadi: “Qabilasining ismini va etti otasining otini bilmay turganlarni qul-marquq (manqurt Shundan olingan) derlar”. Demak, bu millatning tarixini taniShi, nomi iftixor tuyg‘usi baland bo‘lgan.

Mafkura to‘qilmaydi, yaratilmaydi. Asriy an’analardan kelib chiqib Shakillantiriladi. Bu erda tarix muhim. Tarixning adabiyot, falsafa, etnografiya, psixologiya bilan tutaSh nuqtalari ayricha ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bu borada jadidchilik, Shu jumladan, XX asr boShidagi Turkiston jadid matbuoti qiziqarli materiallar bera oladi. Darvoqe, milliy g‘oya, milliy mafkura haqida gap ketganda bir narsani, albatta hisobga oliShimiz kerak deb o‘ylaymiz. Hamonki, bular olis tariximiz bilan chambarchas bog‘liq ekan, u o‘z nomini kechagina olgan “o‘zbek” tarixi bilan kifoyalanmasligi kerak.

Xulosa (Conclusion). Ular ko‘targan adolat bayrog‘i millatni bir va bor qiladigan asosiy omillar edi. Jadidchilik harakati XIX asrning oxirgi choragidan XX asrning 20-yillariga qadar Markaziy Osiyoda, xususan Turkistonda yuz bergan ijtimoiy-madaniy va ma’rifiy islohot harakati bo‘lib, uning asosiy maqsadi o‘zbek jamiyatini modernizatsiya qiliSh, ilm-fan va ma’rifatni rivojlantiriSh, milliy ong va madaniyatni uyg‘otiSh edi. UShbu harakatning chuqur ijtimoiy-tarixiy ildizlari bor bo‘lib, ularni tuShunmasdan turib, jadidchilik harakatini to‘liq anglab bo‘lmaydi.

Iqtisodiy o‘zgariShlar XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda bozor munosabatlari rivojlana boShladi, yangi kasb-hunarlar paydo bo‘ldi, savdo-sotiq kengaydi. Bu o‘zgariShlar natijasida yangi ijtimoiy qatlam milliy burjuaziya Shakllana boshladi. Jadidchilik harakati aynan Shu qatlamning faol vakillari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi va rivojlandi. Milliy

burjuaziya vakillari ta’limning rivojlaniShiga, zamonaviy bilim va texnologiyalarning joriy etilishiga manfaatdor edilar, chunki bu ularning iqtisodiy va ijtimoiy mavqelarini mustahkamlashga yordam berardi.

Ijtimoiy adolatsizlikka qarShi kuraSh jadidlar faqatgina ta’lim sohasida emas, balki ijtimoiy adolatsizlikka qarShi kuraShda ham faol iShtirok etdilar. Ular mustamlakachilik siyosatining zulmini, ijtimoiy tengsizlikni tanqid qildilar va xalqni ma’rifat va adolat yo‘lida kuraShga chaqirdilar. Ularning faoliyati ijtimoiy-siyosiy o‘zgariShlarga turtki berdi va milliy ozodlik harakati uchun zamin yaratdi.

Jadidchilik harakati milliy matbuotning rivojlaniShi bilan chambarchas bog‘liq edi. Jadidlar tomonidan naShr etilgan “Tarjumon”, “Oyna”, “Sadoyi Turkiston” kabi gazeta va jurnallar yangi g‘oyalarni tarqatiSh, jamoatchilik fikrini ShakllantiriSh, milliy ongning uyg‘oniShiga turtki beriShda muhim rol o‘ynadi. Matbuotda jadidlarimizning faoliyatini keng ommaga etkaziSh, ularning g‘oyalarini targ‘ib qiliSh va jamoatchilikni ma’rifatga undaSh vositasi bo‘ldi.

Jadidchilik harakatining asosiy yutug‘i yangi usuldagi maktablarning tashkil etish edi. Bu maktablarda zamonaviy fanlar, milliy til va adabiyot, axloq va vatanparvarlik ruhida ta’lim berildi. YAngi usul maktablari an’anaviy madrasalardan farqli ravishda, dunyoviy va milliy ruhda tarbiyalangan yoSh avlodni etiShtiriShga xizmat qildi.

Jadidchilik harakati XX asrning 20-yillarida bostirildi, lekin uning ilmiy merosi, pedagogik g‘oyalari va milliy ruhi bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. YAngi O‘zbekistonning taraqqiyoti uchun jadidlarning milliy ongning uyg‘oniShiga, ta’lim tizimini isloh qiliShga va milliy madaniyatni rivojlantiriShga qo‘Shgan hissasi beqiyosdir. Ularning merosini o‘rganiSh, o‘zbek xalqining milliy o‘zligini anglaSh, milliy g‘oyani mustahkamlaSh, ta’lim tizimini rivojlantiriSh va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga egadir.

Jadidchilik harakatini o‘rganiSh faqatgina tarixiy faktlarni to‘plash bilan cheklanib qolmasdan, balki uning ijtimoiy-tarixiy ildizlari, sabablari, dolzarbligi va oqibatlarini chuqur tahlil qiliShni talab etadi. Faqatgina shu yo‘l bilan biz bu harakatning mohiyatini anglab, uning boy merosi va tajribasidan zamonaviy O‘zbekiston taraqqiyoti uchun foydalaniShimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ona yurt fidoyilari / Mahmudxo‘ja Behbudiy buyuk ma’rifatparvar.-Tosh.:“Ma’naviyat”, 2024. -12 bet.

2. Саидов Х. Жадид матбуотида сиёсий мавзуларнинг акс этиши. ttps://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/2097/1916.

3. Каримов И.Тарихий хотирасиз келажак йўқ.//Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз.7-т.-Т.: Ўзбекистон, 1999. 145-бет.

4. D.Murodov. Imom Buxoriydan qirq hadis.Tosh. Movaraunnahr.2018. 31.bet

5.I.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Toshkent, 1998, 7-bet.

6. Иззат Султон. Адабиёт назарияси.-Т.:Ўқитувчи,1980.47.b.

7.Муҳсиний. Барҳаёт гулшан.-Фарғона, 2008. Б.168.